

Toshkent kuranti

Zahro Hasanova



Zahro Hasanova
1962

Zahro Hasanova – o‘zbek bolalar shoiri. U 1962-yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Shoiraning “Zukko alifbo”, “Kutilmagan sovg‘a”, “Topishmoq va tez aytishlar”, “Salom, maktab”, “Ko‘zmunchog‘im” hamda “Kitob – sen osmonimsan” nomli kitoblari nashr etilgan. 2014-yildan buyon “Gulxan” jurnalining bosh muharriri sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.



O‘qing.

Amir Temur xiyobonida
Bong uradi Toshkent kuranti*.
Haykal turar keng maydonida,
Sohibqiron – Turon* farzandi.

Kurantlar jo‘r bong urganida
Ko‘zlarimiz charaqlab ketar.
Oqshom cho‘kib, kech kirganida
Yulduz kabi porlar chiroqlar.

Poytaxt Toshkent, chiroying o‘zga,
Qo‘sh kurantlar tongni olqishlar.
Har kun yo‘lni ko‘rsatar bizga –
Kimni ishga, kimni o‘qishga.



Toshkent asli do'stlik shahridir,
Qardosh xalqlar inoq yashaydi.
Ahillikda kurant bongidek
Jarang berib qadam tashlaydi.

Ona shahrim, poytaxtim Toshkent,
Chin shioring – tinchlik va hurlik.
Qo'lni qo'lga bersinlar mudom*,
Xalqing aro yashasin do'stlik.



kurant – musiqali bong uradigan minora soati
Turon – turkiylar yurti, Turkiston
mudom – doim, hamma vaqt, hamisha



1. She'rdagi qaysi tarixiy shaxs tilga olingan?
2. She'rdagi Toshkentning qaysi jihatlari ulug'langan?
3. Shoir nima uchun Toshkentni **do'stlik shahri** deb ataydi?
4. Siz o'z yashab turgan joyingizni qanday chiroyli so'zlar bilan ta'riflagan bo'lardingiz?



She'ni yod oling.

